



UDK:81.23

*Xusnida ABDUG'NIYEVA*  
Namangan davlat universiteti doktoranti  
E-mail: [Abduganiyeva1999@bk.ru](mailto:Abduganiyeva1999@bk.ru)

*NamDu filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Sulaymonov taqrizi asosida*

### UMUMIY O'RTA TA'LIMDA XEMINGUEY VA SETON TOMPSON ASARLARINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV OMILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jahon adabiyoti namoyondalari Ernest Xeminguey va Seton Tompson asarlari o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda adabiy-estetik tafakkur, mustaqil fikrlash, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish omillari yoritilgan. Tadqiqot natijalari adabiyot darslarini samarali tashkil etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiyaviy yondashuv, jahon adabiyoti, adabiy kompetensiya, adabiy-estetik tafakkur.

### FACTORS OF COMPETENCY-BASED APPROACH IN TEACHING THE WORKS OF HEMINGWAY AND SETON THOMPSON IN GENERAL SECONDARY EDUCATION

Annotation

This article analyzes the role and importance of the competency-based approach in teaching the works of the representatives of world literature, Ernest Hemingway and Seton Thompson, in general secondary education institutions. The article highlights factors for developing literary-aesthetic thinking, independent thinking, and socio-cultural competencies among students based on a competency-based approach. The results of the research serve as a methodological foundation for effectively organizing literature classes.

**Key words:** Competency-based approach, world literature, literary competency, literary-aesthetic thinking.

### ФАКТОРЫ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ ХЕМИНГУЭЯ И СЕТОНА ТОМПСОНА В ОБЩЕМ СРЕДНЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение компетентностного подхода в обучении произведениям представителей мировой литературы, Эрнеста Хемингуэя и Сетона Томпсона, в учреждениях общего среднего образования. В статье выделяются факторы, способствующие развитию литературно-эстетического мышления, независимого мышления и социокультурной компетенции у учащихся на основе компетентностного подхода. Результаты исследования служат методологической основой для эффективной организации уроков литературы.

**Ключевые слова:** Компетентностный подход, мировая литература, литературная компетенция, литературно-эстетическое мышление.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon adabiyoti vakillari Ernest Xeminguey va Seton Tompson inson va tabiat, jasorat, iroda, axloq tanlov kabi mavzularni yoritishi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlar umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay didaktik material hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ( Xeminguey va Seton Tompson asarlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv omillarini aniqlash va ta'minlash jarayonidagi samaradorligini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot umumiy o'rta ta'limda Xeminguey va Seton Tompson asarlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv omillarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogika va adabiyotshunoslik fanlariga xos bo'lgan kompleks metodlar tizimidan foydalaniladi. Tadqiqot metodlarini tanlashda kompetensiyaviy

yondashuvning nazariy asoslari hamda adabiy ta'limning amaliy tajribalari inobatga olinadi.

Xorij tajribalarini ta'lim tizimiga tatbiq qilish xalqning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini hisobga olgan holda ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi omil ekanligini va ularni amaliyotga joriy qilish muhim talablardan biri ekanligini prezidentimiz alohida ta'kidlab o'tganlar [1].

Ushbu sohada xorij va o'zimizning olimlarimiz tomonidan turli metodlar ishlab chiqilgan. Faqat shu metodlarini ilmiy ishimiz doirasiga mos holda tanlashimiz kerak bo'ladi.

Avvalo, nazariy tahlil metodi qo'llaniladi va bu metod yordamida kompetensiyaviy yondashuvga oid pedagogik, metodik va adabiyotshunoslik manbalari o'rganiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, "Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini shaxsning hayotiy vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nonstandard vaziyatlarida

qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi deb yozadi Pedagog olim Qorayev[2].

Mazkur yondashuv Xeminguey va Seton Tompson asarlarining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy-tahliliy metod tadqiqotning yetakchi metodlaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bu metod orqali Xeminguey asarlaridagi insoniy xarakter, ichki kurash, qat'iyat va iroda masalari, Seton Tompson asarlaridagi tabiat va hayvonot olami bilan bog'liq g'oyalar tahlil qilinadi. Adabiy tahlil jarayonida obraz, syujet, konflikt va muallif pozitsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Adabiy ta'limda badiiy tahlilning ahamiyati haqidagi quyidagi fikr muhim ahamiyatlidir: "Badiiy asarni tahlil qilish o'quvchining tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi asosiy vositadir"[3]. Chindan ham badiiy asarlarni ko'p tahlil qilib o'qish nutqiy va aqliy tafakkurni o'stirishi amaliyotda kuzatilgan. Shuningdek, taqqoslash metodi yordamida Xeminguey va Seton Tompson asarlaridagi umumiy var farqli jihatlar aniqlashtiriladi. Ushbu metod orqali har ikkala adib ijodida aks etgan umuminsoniy qadriyatlar (jasorat, mas'uliyat, hayot va tabiatga munosabat masalalari solishtiriladi. Taqqoslash metodi kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, o'quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. O'quvchilar va o'qituvchilarning fikrlari, so'rovnomal va anketa tadqiqotlari natijalariga ko'ra, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ko'proq interaktiv yondashuvlarni afzal ko'rishgan[4].

Pedagogik kuzatuv metodi esa adabiyot darslarida o'quvchilarning faolligi, munozarada ishtirok etishi, mustaqil fikr bildirish darajasi va kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishini aniqlash imkonini beradi. Bu borada pedagogika fanida o'quvchilarning faol ishtiroki ta'lim samaradorligining asosiy sharti ekan ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali olingan nazariy va amaliy natijalar yagona ilmiy xulosaga keltirildi. Ushbu metodlar yordamida kompetensiyaviy yondashuv omillari guruhlanadi va ularning adabiy ta'limdagi o'rni aniqlashtiriladi.

Umuman olganda, tanlangan tadqiqot metodlari Xeminguey va Seton Tompson asarlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi hamda tadqiqot maqsadiga erishishni ta'minlandi.

**Natijalar.** Umumiy o'rta ta'limda Xeminguey va Seton Tompson asarlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda shakllangan kompetensiyalar mazmuniy jihatdan tahlil qilindi.

Birinchiidan, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi kuzatildi. Xeminguey asarlaridagi qahramonlarning murakkab hayotiy vaziyatlarda qabul qilingan qarorlari o'quvchilarni sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish qilishga undaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi, balki ularni jamiyatda faol va mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi[5]. O'quvchilar qahramon xatti-harakatlariga baho berish, muqobil yechimlarni taklif etish orqali mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari namoyon etdilar. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning " bilimni amaliy vaziyatda qo'llash" tamoyiliga mos keladi. Ikkinchiidan, Seton Tompson asarlarini o'rganish jarayonida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalar shakllanishi aniqlandi. Hayvonot olami tasviri orqali rahm-shafqat, mas'uliyat va adolat tushunchalari o'quvchilar ongida mustahkamlandi. O'quvchilar asar qahramonlariga nisbatan munosabat bildirar ekan, o'z axloqiy

pozitsiyasini asoslab berishga harakat qildilar. Bu jarayon shaxsiy fikrni dalillash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Uchunchidan, adabiy asarlarini muammoli savollar va munozaralar asosida o'rganish kommunikativ kompetensiyaning oshishiga olib keladi. Dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi faollashadi, fikrni izchil bayon qilish va tinglovchiga mos tarzda ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, ro'li o'yinlar va kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar o'zaro hamkorlik qilishni o'rganadilar. Xorijiy tili darsida ro'li o'yinlarni tashkil etish o'qituvchidan aniq rejalashtirish, ijodiylik va pedagogik mahorat talab qiladi. Ro'li o'yinlarning samarali bo'lishi o'yin senariyasining tog'ri tuzilishi, ishtirokchilarning ro'li va vazifalarining aniq belgilanishiga bog'liq[5].

Shuningdek, mazkur asarlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarning kitobxonlik motivatsiyasini ham oshiradi. Asar mazmunining hayotiyliigi va real muammolar bilan bog'liqligi o'quvchining adabiyot faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

**Muhokama.** Xeminguey va Seton Tompson asarlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish adabiy ta'limning mazmunini boyitadi va uni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeliga yaqinlashtiradi. Olingan natijalar zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan mos keladi.

Xususan, kompetensiyaviy yondashuv tarafdorlari ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonida o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faol tahlil, muhokama va baholash jaryonida egallashi zarur. Mazkur tadqiqotda Xeminguey asarlaridagi qahramonlarning ichki kurashi va hayotiy tanlovlarini muhokama qilish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini faollashtirgani aynan shu nazariy fikrni tasdiqlaydi. O'quvchilar voqealarga baho berishda shaxsiy tajribasi va axloqiy mezonlariga tayanishga harakat qildilar.

Seton Tompson asarlarini o'rganish jarayonida esa adabiy ta'limni tarbiyaviy funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Tabiat va hayvonot olamiga nisbatan munosabatni tahlil qilish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari shakllandi. Bu holat adabiyot fanining nafaqat estetik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega fan ekanini yana bir bor ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. Agar o'qituvchi asar mazmunini faqat qayta hikoyalash bilan cheklansa, kompetensiyalar to'liq shakllanmaydi. Milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishda muhim omil bo'lib, ularning milliy o'zligini shakllantirishda, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda va jamiyatda o'z o'rnini topishda asosiy ahamiyatga ega [6]. O'qituvchi yoshlar ongida milliy o'zlik kabi tushunchalarni ham sodda, aniq tarzda tushuntirib berishi lozim bo'ladi. Muammoli savollar, bahs-munozaralar, rolli o'yinlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar qo'llanilganda ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki, Xeminguey va Seton-Tompson asarlarini o'qitish umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladi. Asarlardagi voqealarning soddaligi, g'oyaning ravshanligi va obrazlarning hayotiyliigi o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning amaliy jihatdan muvaffaqiyatli qo'llanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan xorijiy tildagi adabiyot darslari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mulqot qilish, axloqiy qaror qabul qilish kabi muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

**Xulosa va amaliy tavsiyalar.** Umumiy o'rta ta'limda Xeminguey va Seton-Tompson asarlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish adabiy ta'lim samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan tasdig'ini topgan nazraiya salanadi. Dars jarayonida ushbu adiblar ijodini o'rganish orqali o'quvchilarda nafaqat adabiy bilimlar, balki hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim kompetensiyalar shakllanishi aniqlangan.

Xususan, Xeminguey asarlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va axloqiy baholash kompetensiyalari rivojlanadi.

Qahramonlarning murakkab hayotiy vaziyatlardagi xatti-harakatlarini muhokama qilish o'quvchilarni real hayot bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Seton-Tompson asarlari esa o'quvchilarda tabiatga mas'uliyat bilan yondashuvi, rahm-shafqat va ijtimoiy ongni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, ularning fikrini og'zaki va yozma shaklda izchil bayon etish

ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda adabiyot faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Xeminguey va Seton-Tompson asarlarini o'qitishda muammoli savollar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan keng foydalanish;

Adabiyot darslarida munozara, rolli o'yinlar va kichik guruhlarda ishlash metodlarini tizimli qo'llash;

Asar tahlilini o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan bog'lab olib borish;

Kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish uchun adabiyot o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirish;

O'quvchilarda ekologik va axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida Seton-Tompson asarlaridan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish.

**Xulosa.** Xeminguey va Seton-Tompson asarlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish umumiy o'rta ta'limda adabiy ta'lim mazmunini boyitadi, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojiga xizmat qiladi hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos natijalarni ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qaror.
2. Qorayev S.B. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari". American research in educational Sciences. Vol 3. 2022. ISSN:2181-1385. p.1072.
3. G'ulomova X. "Badiiy asar matni tahlili orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish". Academic research in Educational Science. Vol 2.Issue 9. 2021. ISSN:2181-1385
4. Muminov, B. "O'qituvchining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti. 2017.
5. Xasanovna, R. M. "Ijtimoiy munosabatlar va guruh dinamikasi". The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 2024. 177-182
6. Sharipov J. "Rolli o'yinlarning xorijiy tillarni o'qitishdagi ahamiyati". Internet kutubxona. 4- bet.
7. Saidov B. "Milliy qadriyatlar va tarbiya", Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2018. 45-47-betlar.